



O‘QUVCHI YOSHLARNI VATANPARVARLIK TUYGUSINI TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI

Davletmuratova E.

Nukus innovatsion institutining katta o‘qituvchisi

Orazbaeva G.

Nukus innovatsion institutining S1-PD-23guruhi talabasi

Tayanch so‘zlar: ta‘lim-tarbiya, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, pedagogika, qadriyat.

Ключевые слова: воспитание, патриотизм, национальные ценности, педагогика, духовность.

Key words: education, patriotism, national values, pedagogika, spirituality.

Mustaqil vatanimizning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol, intellectual salohiyatli avlodni tarbiyalashga bo‘g‘liq. Shunday muhim vazifani amalga oshirish uchun o‘z Vatani, xalqiga, istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, erkin va mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni shakllantirish davlat ta‘lim siyosatining ustivor y‘onalishlaridan biridir.

Vatanparvarlik yuksak m‘naviy-axloqiy fazilat sanaladi va ota-bobolardan meros qolgan vatanni sevish, ardoqlash, urf-odatlar, qadriyatlarni e‘zozlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan halol mehnat qilish, Vatanni himoya qilishda namoyon b‘oladi. Barcha kishilar, xalq, millatlar ‘uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuygu, ma‘naviy qadriyatlardan biri.

Xalq pedagogikasi milliy ilmiy pedagogikasining metodologik asosi, hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta‘lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Xalqimizning ta‘lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini o‘rganadi, bu esa bo‘lg‘usi pedagoglarni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlashga, ta‘lim tarbiya tizimini milliy ruh bilan su‘gorishga yordam beradi. Zero, milliy an‘analarini, urf- odatlarini har tomonlama o‘rganish, ularning mazmuni va tarbiyaviy xususiyatlarini tushuntirish, ilmiy- metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish,



o'quvchilarda, jamoatchilikda xalq qadriyatlariga qiziqish uyg'otish, ular asosida kishilarning madaniy, axloqiy, jismoniy, ma'naviy darajasini yuqori saviyaga ko'tarish kabi bugungi kunning dolzarb muammolarini hal etishda ham xalq pedagogikasi muhim rol o'ynaydi.

Milliy qadriyatlar orqali vatanga e'tiqodni tarbiyalash jamiyatning barcha ijtimoiy institutlarida o'rganilayotgan bo'lsada, ammo mamlakatimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi-yoshlarda, vatanga e'tiqod asoslarini shakllantirish, vatanparvarlikni e'tiqod darajasida ko'tarish borasidagi ilmiy izlanishlarni bugungi davr talabi nuqtai nazaridan keng ko'lamda olib borish, ayniqsa, maktab o'quvchilarida vatanparvarlikni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan samarali foydalanish masalasini dolzarb muammo sifatida yanada kengroq ilmiy-nazariy tahlil etilishini maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Tadqiqot ishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlar, ularni hal etish yo'llarini belgilash nazarda tutilayapti:

- Xalq an'analari asosida vatanparvarlikka tarbiyalash uchun ularni zarur bilimlarga egallangan bo'lishi:
- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi shaxsini rivonlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish:
- Ta'lim –tarbiya jarayonida, ma'naviyat soatlarida yoshlarni vatanparvar fuqarolarni ta'minlashga qaratilgan usul va uslublarini ishlab chish, maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish:
- buyuk tariximiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, madaniyatimiz g'oyalari asosida el-yurt faravonligini ta'minlashga qodir vatanparvar, insonparvar yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish.

Xalqimizning yosh avlodni tarbiyalashdagi donishmandlik qarashlari va amaliy tajrubasi uning ijodiyotida: dostonlarida, naql-maqollarida, xalq qu'shiqlarida, odob-axloqlarida, qadriyatlarida va xalq bayramlari, badiiy asarlarida aks ettirilgan. Bu o'z -o'zidan xalq pedagogikasini va uning boy tarixini o'rganish zaruriyatini kuchaytiradi.

Tarixiy jihatdan kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan o'tmish



merosimiz to'g'risida ko'plab ma'lumotlar to'plangan bo'lib, ularni yoshlarimizga

tushunarli va tizimli ravishda yetkazib berish bo'yicha juda ko'p ishlarni amalga oshirish zarur. Bu boradagi ishlar yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada oshirish bilan birgalikda, ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini ham kuchaytiradi. Buyuk allomalar al Farobiy, al Farg'oni, al Xorazmiy, Beruniy, IbnSino, A.Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy va boshqa mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga doir pedagogik qarashlarini, umumbashariy qadriyatlar, umuminsoniy va ma'naviyahloqiy tamoyillarni o'rganish va buyuk alloma va donishmandlar, ma'rifatparvar pedagoglar, olimu-fozillarining tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini tahlil qilish axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, kelajakda mustaqil va ongli fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takamillashtirishda ahamiyoti beqiyos.

Vatanparvarlik haqidagi mutafakkirlarining g'oyalariga nazar soladigan bo'lsak: Alisher Navoiy va Bobur ham o'z asarlari orqali barhayotdir. O'zini "vatanga rahnamo" bilgan Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida shunday degan edi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g'urbat havas aylama...

G'urbatta g'arib shodmon bo'lmas emish,

El angas hafiqu mehribon bo'lmas emish.

"Xayratul-abror" asarini o'qir ekanmiz, uning:

Odamiy ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

Bayti Navoiyning butun ijodiy faoliyati insonparvarlik xususiyatiga ega bo'lganini chuqur his etamiz.

Bobur Navoiy yo'lidan borib, yolg'iz yordan judolik alamlarini kuylash bilan

kifoyalanmaydi, balki bu hisga diyor firoqini ham uyg'unlashtirib, Vatan sog'inchini tarannum,etadi. Ko'rinib turibdiki, har ikki buyuk ijodkor janr jihatidan eng kichik asarlarida ham Vatan tuyg'usini baland pardalarda kuylagan.

Berdaq shoyr bobomiz insonning shaxsiy baxti, xalq baxti bilan bog'liq deb biladi. Uning ta'kidlashicha, har bir odam haqiqiy baxtga erishishi uchun o'z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan birlashtirishi, xalq baxti uchun kerak bo'lsa jonini ham ayamasligi kerak. Berdaqning fikricha inson oliy axloqiy



sifatlarga, chunonchi, beg‘arazlik, oliyjanoblik, vijdoniylik, mehnatsevarlik, mardlik fazilatlariga ega bo‘lishi lozim.

Yigit bo‘lsang arslon kabi tug‘ilgan,
Hamisha sen hizmat etgil xalq ushun.

Yigit degan yaxshi bilimdon bo‘lur,
Bilim hunar yigit uchun shon bo‘lur.

Berdaq shoyrning fikricha, inson oily axloqiy sifatlarga, mehnatsevarlik, mardlik fazilatlariga ega bo‘lishi lozim.

Komil insonni tarbiyalash jarayonini o‘rganish, komil insonni tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniqlab ta‘lim-tarbiya nazariyasi va tarixidagi qoida, qonun tamoyil, metod va usullarni

maktab amaliy hayoti bilan bog‘lab bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatish, xalq t‘alimi,

ta‘lim muassasalarini boshqarish va rahbarlik qilish masalalarini chuqur o‘rganib,

bo‘lajak mutaxassislar salohiyatini yuqori saviyada tayyorlash muammolarini hal qilib, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi t‘alim-tarbiya, ta‘lim tizimlari hamda ta‘limni boshqaruv jarayoniga doir eng ilg‘or tajribalarni b‘olajak oq‘ituvchilarga chuqurroq o‘rgatish va amaliyotda qo‘llashni tashkil etishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. M.Mutalipova Xalq pedagogikasi-o‘quv qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti T. – 2011.
2. G. Qarshiboyeva, J. Majidov, A. Sharafitdinov. oilada bolalarni xalq og‘zaki ijodi na‘munalari asosida tarbiyalash(uslubiy qo‘llanma)-T. 2018, 8b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.Toshkent: O‘qituvchi, 2004. 87b.
4. Umumiy pedagogika fan dasturi-T.2016. 4b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada vatanparvarlikni tarbiyalashning dolzarb muammo ekanligi, o‘quvchi-yoshlarda bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi haqida so‘z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются актуальные вопросы патриотического воспитания, приоритета национальных и общечеловеческих ценностей в патриотическом воспитании учащихся.

SUMMARY

In this article considers topical issues of patriotic education, the priority of national and universal values in the patriotic education of pupils.